

АНДИЖОН МАШИНАСОЗЛИК ИНСТИТУТИ

“ТЕХНОЛОГИЯ” факультети

“МАШИНАСОЗЛИК ТЕХНОЛОГИЯСИ” кафедраси


БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ БЎЙИЧА

ТУШИНТИРИШ ХАТИ

Битирув малакавий ишининг мавзуси: “1016 Дастак таянчи” деталини тайёрлаш технологик жараёнини ва операциялари технологик таъминот воситаларининг конструкциясини ишлаб чиқиш.

Битирувчи: “Машинасозлик технологияси, машинасозлик ишлаб чиқаришини жихозлаш ва автоматлаштириш” йўналиши

4-курс 011-11 гуруҳ талабаси:




Ф.Ахмадилаев

Факультет декани:




Х.Акбаров

Кафедра мудири:



Х.Акбаров

Битирув малакавий иши раҳбари
ва маслахатчи:



А. Хайдаров


Технологик қисми:

А. Хайдаров

Конструкторлик қисми:


А. Хайдаров

Мехнат муҳофазаси қисми:



А.Рахимов

Иктисодий қисми:



М.Жўрахонов

АНДИЖОН МАШИНАСОЗЛИК ИНСТИТУТИ

“ТЕХНОЛОГИЯ” факультети

“МАШИНАСОЗЛИК ТЕХНОЛОГИЯСИ” кафедраси

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИНИ БАЖАРИШ БЎЙИЧА

Т О Р Ш И Р И Қ

Ахмадилаев Файзулло Нумонжон ўғли

1. Битирув малакавий ишининг мавзуси: “1016 Дастак таянчи” деталини тайёрлаш технологик жараёнини ва операциялари технологик таъминот воситаларининг конструкциясини ишлаб чиқиш.

Институт бўйича 2014 йил 26-декабрдаги 194-сонли буйруқ билан тасдиқланган.

2. Битирув малакавий ишини бажариш учун маълумотлар:

Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари, қарорлари, фармойишлари, ВМ қарорлари, илмий-техник адабиётлар, интернет маълумотлари, деталларни юза сифатини яхшилаш усуллари.

3. Тушинтириш хатида келтириладиган маълумотлар:

1) Кириш. Ўзбекистоннинг ривожланишда машинасозлик саноатининг роли аҳамияти, қарор ва фармонлар тўғрисида маълумотлар берилади.

2) Умумий қисм. Деталнинг хизмат вазифаси, ишлаб чиқариш турини аниқлаш ва бошқалар. Заготовкаи олиш турини танлаш, технологик жараён маршрутини ишлаб чиқиш, детал конструкциясини технологикликка тахлили, заготовкага ишлов беришда қўйим ҳисоби, кесиш маромларини ҳисоблаш, вақт меъёрини ҳисоблаш.

3) Конструкторлик қисми. Дастгоҳ мосламасини баёни ва ҳисоби, дастгоҳ мосламасини аниқликка ҳисоби, кесувчи асбобни баёни ва ҳисоби, текширув мосламасини баёни.

4) Иқтисодий қисм. Ишлаб чиқариш жараёнини самарадорлиги, унинг сифати, ишлаб чиқариш технологияларини иқтисодий томондан тежамкорлигини ошириш, сарфини камайтириш омилларини ишлаб чиқиш.

5) Мехнат муҳофазаси қисми. Лойиҳаланаётган ишчи жойини меҳнат шароитларининг таърифи, ишлаб чиқариш жойида ёритиш тизимини танлаш, вентиляция тизимини танлаш, электр хавфсизлиги, ёнғин хавфсизлиги, алоқа ёнғин сигнализация тизими ва бошқалар, меҳнат хавфсизлиги бўйича барча талаблар ва қонун қоидалар.







6) Хулоса ва таклифлар. Бажарилган битирув малакавий ишида қилинган ишлар бўйича хулосалар ва таклифлар ёритилади.

7) Фойдаланилган адабиётлар рўйхати. Бажарилган битирув малакавий иш бўйича фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

- 8) Илова. Битирув малакавий ишини спецификациялари.
4. Битирув малакавий ишининг чизмалари рўйхати:

1. Заготовка чизмаси.
2. Операцион ва эскизлар чизмаси.
3. Мослама лойихаси.
4. Кесувчи асбоб ёки ўлчов асбоби чизмаси.
5. Ўлчов воситаси ёки участка лойихаси.


5. Битирув малакавий иши қисмлари бўйича маслаҳатчилар:

№	Битирув малакавий ишининг қисмлари	Бошла-ниш муддати	Тугал-ланиш муддати	Имзо	Маслаҳатчининг фамилияси ва исми
1	Кириш	15.03.15	20.03.15		А. Хайдаров
2	Технологик қисм	25.03.15	20.04.15		А. Хайдаров
3	Конструкторлик қисми	25.04.15	20.05.15		А. Хайдаров
4	Иқтисодий қисм	20.05.15	25.05.15		М.Жўрахонов
5	Хаёт фаолияти хавфсизлиги қисми	25.05.15	30.05.15		А.Рахимов
6	Илова	30.05.15	3.06.15		А. Хайдаров


6. Топшириқ берилган сана : 26.12.2014

7. Тугалланган битирув малакавий ишини торшириш санаси: 8.06.2015

Битирув малакавий иши раҳбари ва маслаҳатчиси:
А. Хайдаров


(ИМЗО)

Топшириқ бажариш учун қабул қилинди
Ф.Н.Ахмадилаев


(ИМЗО)

Кафедра мудири
Х.Ақбаров


(ИМЗО)

Mundarija

KIRISH	Ошибка! Закладка не определена.
1. UMUMIY QISM.....	7
1.1. Detalning vazifasi	7
1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash.....	8
2. TEXNOLOGIK QISM	10
2.1. Detal konstruktsiyasini texnologiglikga taxlili	10
2.2. Zagotovka tanlash	11
2.3. Zagatovkaga ishlov berishda quyim hisobi.....	12
2.4. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish.....	16
2.5. Kesish rejimini hisoblash	17
2.6. Vaqt me'yorini xisobi.....	29
3. KONSTRUKTORLIK QISM	34
3.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi	34
3.2. Dastgoh moslamasini aniqlikka hisoblash.....	Ошибка! Закладка не определена.
3.3. Kesuvchi asbobni bayoni va hisobi	36
3.4. Tekshiruv moslamasini bayoni	41
4. IQTISODIY BO'LIMI	43
5. XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	56

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bugungi kunda iqtisodiyotning barcha jabxalarida keskin burilishlar, o'zgarishlar va rivojlanishlar sodir bo'lmoqda. Ushbu rivojlanishlarning asosiy sababi esa oqilona yuritilayotgan iqtisodiy jarayonlar va tadbirkorlikka asoslangan holda qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlardir.

Bu fikrlarning to'g'riligini esa yillar davomida erishib kelinayotgan yutuqlarimiz so'zsiz isbotlaydi. O'zbekiston Respublikasini 2015 yilning I choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarida ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan 2015 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish bo'yicha o'rta muddatli dasturlarning bajarilishini davom ettirish 2015yilning I choragida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasini saqlash va keyingi choraklarda iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning mustahkam asosini yaratishni ta'minlayotganligini ko'rishimiz mumkin.[1]

Davlatimizning dunyodagi sanoati rivojlangan mamlakatlaridan o'z o'rnini egalallashda yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ko'rsatilgan asosiy masaladir. Bunday mutaxassislar zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, loyihalashni, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan foydalanishni, raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar asosida yuqori unumdorlikdagi moslanuvchan ishlab chiqarish modullarni va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama bilishlari va ulardan foydalana olishlari kerak. SHuning uchun bitiruv malakaviy ishi zamonaviy mashina va jihozlarini ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or texnika va yuqori texnologiyalardan foydalangan holda bajarilishi kerak.

Jamiyatning moddiy texnika bazasini yaratuvchi va mamlakatimizning texnik taraqqiyotini rivojlanishini belgilovchi soha mashinasozlikdir. U sanoatning turli tarmoqlarini yangi texnika, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydi. SHu sababli mashinasozlik ishlab chiqarishning barcha sohalarini rivojlanishiga katta tahsir ko'rsatuvchi sanoatning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Mashinasozlikning asosini mashinalarni loyixalash va ishlab chiqarish tashkil etadi. Mashinalar o'z navbatida jamiyat turmush farovonligini ko'rsatadi. Ular ish unumdorligini, mehnat samaradorligini va mahsulot sifatini oshiradilar. Mustaqillikning boshlang'ich davridayoq, mamlakatimizda mashinasozlikni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Ko'plab qo'shma korxonalari mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.

Mashinalarga yuqori aniqlik va tezlik, issiqlikka chidamlilik, kichik vazn va xajm, mustahkamlik va ishonchlilik kabi yuqori talablar qo'yilgan. Bunday talablarni oshib borishi mashinasozlar oldiga murakkab konstruktorlik va texnologik savollarni qisqa vaqt ichida yechish masalasini qo'ymoqda.

Xar bir mamlakatning shu jumladan bizning mustaqil O'zbekistonimizning iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy ravnaqi barcha xo'jalik ishlar darajasining ko'tarilishi orqali belgilanadi. Bu ayniqsa xalq xo'jaligining yetarli tarmoqlaridan bo'lmish mashinasozlikka taaluqlidir. SHuning uchun mashinasozlik rivojlanishiga umumiy ishlab chiqarishni rivojlanishiga nisbatan ortiqroq e'tibor beriladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikamiz mashinasozligi oldida yaqin yillarda mo'ljallagan ulkan va ma'suliyatli vazifalar turibdi. Bular jumladan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuqori darajasida ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan energiya va metalni iqtisod qilish texnologiyalarini keng qo'llash, mashinasozlik mahsulotlarini texnik darajasini va sifatini oshirish, zararli va og'ir qo'l mehnatini yengillashtiruvchi mashina va jixozlarni chiqarish, materiallarga ishlov berish dastgohlari sifatini yaxshilash.

1. UMUMIY QISM

1.1. Detalning vazifasi

Tayanch detali pulat 10 materialidan tayorlanga bo'lib, 65x80 o'lchamga ega. Detalda markaziy Ø30 mm teshik ochilgan. Markazdan 40 mm masofada ikkita Ø10 teshiklar mavjud. Bu detal mashina mexanizmlarda tayanch vazifasini bajaradi.

1.1-jadval.

Po'lat 10 GOST 4543-71 ning kimyoviy tarkibi

Tarkibdagi elementlar ulushi, %							
S	Si	Mn	S	Ni	P	Cr	Cu
0,36-0,44	0,17-0,37	0,5-0,8	0,035 gacha	3 gacha	0,035 gacha	0,8-1,1	0,3 gacha

1.2-jadval

T=20°S da po'lat 10 GOST 4543-71 ning mexanik xossalari

Qattiqligi HB, MPa	Oquvchanlik chegarasi σ_0 , Pa	Mustahkamlik chegarasi σ_v , Pa	Nisbiy cho'ziluvchanligi σ , %
212	315	720	17

Po'lat tarkibida uglerod va bir qator doimiy yoki o'zgarmas aralashmalardan: *Mn, Si, S, R, O, N, N* va b.lardan tashkil topgan ko'p tarkibli qotishma hisoblanadi. Ushbu aralashmalarning mavjudligi, shixta-legirlangan mexanik lomdan (Cr, Ni va b.) yoki bo'kish (Mn, Si) jarayonida po'latga o'tishida, erish jarayonida (R, S) ularni chiqarib tashlashning qiyinligi bilan izohlanadi. Ushbu aralashmalar oz miqdorda cho'yan tarkibida ham mavjud bo'ladi.

1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo'lgan mahsulot va zaxira qismlarining ma'lumotiga ega. Bu ma'lumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda ma'lumotni turi, soni, o'lchami va materiali to'g'risida ham yetarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturiga asosan tsexlar bo'yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko'rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig'uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o'ziga xos tashkiliy shaklga ega. SHuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to'g'ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang'ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og'irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Bunda $N=20000$ dona va $m=0.67$ kg bo'lganda ([10],2j,18b) ishlab chiqarish turi o'rta seriyali deb aytishimiz mumkin.

Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$T_B = \frac{F_k * 60}{N} = \frac{4029 * 60}{20000} = 12.087$$

bu yerda: $F_g = 4029 \text{ coam}$ – dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi;
 $N=20000$ dona – yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{20000 \cdot 6}{254} = 472$$

bu yerda: $a=3,6,12,24$ kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri;
 $F=254$ kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

2. TEXNOLOGIK QISM

2.1. Detal konstruksiyasini texnologiklikga taxlili

Mashina detallarini tayyorlashda quyidagi ko'rsatkichlariga e'tibor berish kerak; Detal ishlab chiqarishda iloji boricha ish xajmini kamaytirish; Mexanik ishlov berishni iloji boricha yuqori darajaga ko'tarish; Metalni tejashda yuqori ko'rsatkichga erishish.

Ishlab chiqarish dasturiga, ishlab chiqarish turiga va tayyorlov tsexlarining imkoniyatiga qarab, zagotovkalarining shakli tanlanadi. Zagotovkalar shakli va o'lchamlari jixatidan tayyor detalning shakli va o'lchamlariga yaqin bo'lishi kerak.

Quyidagi texnologiklik ko'rsatkichlarni aniqlaymiz:

Detal konstruksiyasini texnologikligi — konstruksiyasini shunday xossalari yig'indisiki bunda bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bir xil sharoitda tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o'xshash konstruksiyasiga ega bo'lgan maxsulotga nisbatan yanada samarador texnologiyalar bilan ishlov berish ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Detalni texnologilikka taxlil qilish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muxim masalasidir.

Loyixalanayotgan detalni chizmasini taxlili shuni ko'rsatadiki detalni ishchi vazifasini o'zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoni yo'q. Ishlov berishda qiyinchilik tug'diradigan va maqsadga muvofiq bo'lmagan yuzalar aniqlanadi.

Bajarilgan taxlil quyidagi koeffitsentlarni aniqlashga imkon beradi.

1. Ishlov berish aniqligi koeffitsenti.

$$K_{m.o} = 1 - \frac{1}{A_{yp}}$$

bu yerda:

$$K_{m.o} = 1 - \frac{1}{A_{yp}} = 1 - \frac{\sum_{i=1}^{19} n_i}{\sum \tau_{n_i}} = 1 - \frac{\sum_{i=1}^{19} n_i}{(n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19})} = \frac{1+1+1+15}{(6 \cdot 1) + (8 \cdot 1) + (9 \cdot 1) + (14 \cdot 15)} =$$
$$= 1 - \frac{18}{233} = 1 - 0.077 = 0.923$$

2. Yuzalar g'adir–budurlik koeffitsenti.

$$K_m = \frac{1}{B_{ep}}$$

bu yerda:

$$B_{ep} = \frac{(0.01n_1 + 0.02n_2 + \dots + 40n_{13} + 80n_{14})}{\sum_{i=1}^{14} n_i} = \frac{101}{18} = 5.61$$

$$K_m = \frac{1}{B_{ep}} = \frac{1}{5.61} = 0.178 \approx 0.18$$

Bajarilgan taxlil yig'uv birikmaning berilgan detalni to'g'ri loyixalashga imkon beradi.

2.2. Zagotovka tanlash

Zagotovkalar toza va xomaki zagotovkalarga bo'linadi. Toza zagotovka deganda tayyorlangandan keyin kesib ishlanmaydigan, o'lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko'rsatilgan o'lcham va tozalikka to'g'ri keladigan zagotovkalar tushuniladi. Xomaki zagotovkalar chizma talablariga muvofiq keladigan o'lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo'yim kesib olish uchun mexanik ishlanish zarur bo'lgan zagotovkalardir.

Mashina detallari uchun zagotovkalar asosan quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

- 1) qora va rangli metallardan quyish yo'li bilan;
- 2) bosim bilan ishlash (bolg'alash va shtamplash) orqali;

- 3) qora va rangli metallar prokatidan;
- 4) metallokeramikadan (kukun metallurgiyasi yo'li bilan);
- 5) payvandlash – zagotovka qismlarini bir butun qilib ulash yo'li bilan;
- 6) metallmas materiallardan (plastik massalar va boshqalardan).

Zagotovka olish usulini tanlash, detalni o'lcham va materiali, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur va umumiy tuzilishi kabi omillar belgilab beradi. Bu masalani xal qilishda zagotovka o'lchami va tuzilishi detalni o'lcham va tuzilishiga maksimal yaqin bo'lishini ta'minlash kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib keladi. SHuning uchun ham zagotovka olishni optimal usuli qilib, zagotovka tannarxi kam bo'lgandagi usuli hisoblanadi.

Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani optimal tayyorlash usuli quyma usulidan foydalanamiz.

2.3. Zagatovkaga ishlov berishda quyim hisobi

Zagotovka uchun profilning notekisliklari balandligi R va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligi T ni jadvaldan olamiz [4, 186-188 b.]:

- 1). Zagotovka: $R=200$ mkm; $T=300$ mkm ;
- 2). Qora ishlov berish: $R=50$ mkm; $T=50$ mkm;
- 3). Toza frezalash: $R=10$ mkm; $T=15$ mkm.

Dopusklar miqdori [4, 192 b.]:

- zagotovka (quyma) uchun $\delta=840$ mkm;
- qora ishlov berish uchun $\delta=330$ mkm;
- toza frezalash uchun $\delta=250$ mkm.

Agar ishlov berish markaziy teshiklar orqali amalga oshirilayotgan bo'lsa, u holda o'rnatishdagi xatolik radial yo'nalishda nulga teng deb olinishi mumkin.

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_{o'} = \sqrt{\rho_{sur}^2 + \rho_{kor}^2 + \rho_m^2};$$

bu yerda $\rho_{sur}=1,0$ mm – boshqa yuzaga nisbatan surilish qiymati [4, 187 b.]:

$$\rho_{kor} = \Delta_k \cdot l = 3 \cdot 148 = 444 \text{ mkm} = 0,444 \text{ mm};$$

$$\rho_m = \sqrt{\left(\frac{\delta}{2}\right)^2 + 0,25^2} = \sqrt{\left(\frac{0,84}{2}\right)^2 + 0,25^2} = 0,49 \text{ mm}.$$

$$\rho_{o'} = \sqrt{0,25^2 + 0,44^2 + 0,49^2} = 0,707 \text{ mm}.$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- dastlabki qora ishlov berish so'ng $\rho_1 = 0,06 \cdot 707 = 42 \text{ mkm}$.

Qo'yimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

- qora ishlov berish: $2z_{min_3} = 2(200 + 300 + 707) = 2 \cdot 1207 = 2414 \text{ mkm}$.

- toza frezalash: $2z_{min_1} = 2(50 + 50 + 42) = 2 \cdot 142 = 284 \text{ mkm}$.

$$d_{his2} = 29,75 \text{ mm}; \quad d_{max2} = 29,75 + 0,25 = 30 \text{ mm};$$

$$d_{his1} = 29,75 + 0,284 = 30,034 \text{ mm}; \quad d_{max1} = 30 + 0,33 = 30,364 \text{ mm};$$

$$d_{his0} = 30,034 + 2,414 = 32,448 \text{ mm}; \quad d_{max0} = 32,4 + 0,84 = 33,288 \text{ mm}.$$

Quyimlarning eng katta va eng kichik chegaraviy qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$$z_{um.min}^{ch} = 2952 \text{ mkm}.$$

$$z_{um.max}^{ch} = 3852 \text{ mkm}.$$

Xisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$z_{um.min}^{ch} - z_{um.max}^{ch} = \delta_z - \delta_d$$

$$3852 - 2952 = 1200 - 300$$

$$900 = 900$$

Hisob to'g'ri bajarilgan.

2.1-jadval

Texnologik ishlov berish	Qo'yim elementlari			$2z_{min}$	L_h , mm	Dopusk δ , mkm	CHegaraviy o'lcham, mm		Qo'yimlar chegarasi, mkm	
	R_z	T	ρ				L_{min}	L_{max}	$2z_{min}^{ch}$	$2z_{max}^{ch}$
quyma	200	300	826		67,7	1200	67,652	68,852		
qora ishlov	50	50	50	2·1326	65	460	65	65,46	2652	3392

berish										
toza frezalash	10	15	17	2·150	64,7	300	64,7	65	300	460
									2952	3852

A yuzada joylashgan Ø30N7 teshik uchun qo'yim miqdorini hisoblaymiz. Zagotovka quyma usuli bilan olingan. Yuza g'adar-budurligi $R_z=3,2$ mkm. V yuza ishlov berish texnologik marshrutiga ko'ra parmalanadi, zenkerlanadi va razvyortkalanadi.

Zagotovka uchun profilning notekisliklari balandligi R va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligi T ni jadvaldan olamiz [4, 186-188 b.]:

- 1). Zagotovka: $R=200$ mkm; $T=300$ mkm ;
- 2). Parmalash: $R=40$ mkm; $T=60$ mkm;
- 3). Toza zenkerlash: $R=30$ mkm; $T=40$ mkm;
- 4). Razvyortkalash: $R=10$ mkm; $T=25$ mkm.

Dopusklar miqdori [4, 192 b.]:

- zagotovka (quyma) uchun $\delta=840$ mkm;
- parmalash uchun $\delta=210$ mkm;
- toza zenkerlash uchun $\delta=84$ mkm;
- razvyortkalash uchun $\delta=39$ mkm.

Agar ishlov berish markaziy teshiklar orqali amalga oshirilayotgan bo'lsa, u holda o'rnatishdagi xatolik radial yo'nalishda nulgaga teng deb olinishi mumkin.

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_{o'} = \sqrt{\rho_{sur}^2 + \rho_{kor}^2 + \rho_m^2};$$

bu yerda $\rho_{sur}=0,6$ mm – boshqa yuzaga nisbatan surilish qiymati;

$$\rho_{kor} = \Delta_k \cdot l = 1,5 \cdot 65 = 97,5 \text{ mkm} = 0,0975 \text{ mm};$$

$$\rho_m = \sqrt{\left(\frac{\delta}{2}\right)^2 + 0,25^2} = \sqrt{\left(\frac{0,84}{2}\right)^2 + 0,25^2} = 0,49 \text{ mm}.$$

$$\rho_{o'} = \sqrt{0,6^2 + 0,1^2 + 0,49^2} = 0,781 \text{ mm}.$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- parmalashdan so'ng $\rho_1 = 0,06 \cdot 781 = 47$ mkm;
- toza zenkerlashdan so'ng $\rho_2 = 0,04 \cdot 781 = 31$ mkm.

Qo'yimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

- parmalash: $2z_{min_3} = 2(200 + 300 + 781) = 2 \cdot 1281 = 2562$ mkm;
- toza zenkerlash: $2z_{min_2} = 2(40 + 60 + 47) = 2 \cdot 147 = 294$ mkm;
- razvyortkalash: $2z_{min_1} = 2(30 + 40 + 31) = 2 \cdot 101 = 202$ mkm.

$$d_{min3} = 29,961 \text{ mm};$$

$$d_{his3} = 29,961 + 0,039 = 30 \text{ mm};$$

$$d_{max2} = d_{min} - 0 = 29,961 \text{ mm};$$

$$d_{his2} = 29,465 + 0,116 = 29,571 \text{ mm};$$

$$d_{max1} = 29,759 - 0,294 = 29,465 \text{ mm};$$

$$d_{his1} = 29,465 + 0,21 = 29,675 \text{ mm};$$

$$d_{max0} = 29,465 - 2,562 = 26,903 \text{ mm};$$

$$d_{his0} = 26,903 + 0,84 = 27,743 \text{ mm}.$$

Quyimlarning eng katta va eng kichik chegaraviy qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$$z_{um.min}^{ch} = 3058 \text{ mkm}.$$

$$z_{um.max}^{ch} = 2257 \text{ mkm}.$$

Xisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$z_{um.min}^{ch} - z_{um.max}^{ch} = \delta_z - \delta_d$$

$$2257 - 3058 = 840 - 39$$

$$801 = 801$$

Hisob to'g'ri bajarilgan.

2.2-jadval

Texnologik ishlov berish	Qo'yim elementlari			$2z_{min}$	D_h , mm	Dopusk δ , mkm	CHegaraviy o'lcham, mm		Qo'yimlar chegarasi, mkm	
	R_z	T	ρ				D_{min}	D_{max}	$2z_{min}^{ch}$	$2z_{max}^{ch}$
Quyma	200	300	781		26,9	840	26,903	27,743		
Parmalash	40	60	47	$2 \cdot 1281$	29,5	210	29,465	29,675	1932	2562
Zenkerlash	30	40	31	$2 \cdot 147$	29,8	84	29,759	29,843	168	294
Razvyortkalash	10	25	0	$2 \cdot 101$	30	39	29,961	30	157	202
									2257	3058

2.3-jadval

Ishlov beriladigan yuza	O'lcham	Qo'yim		CHetlanish, mm
		Jadval, mm	Hisobiy, mm	
A,B	15±0,013	2		+0,5 -0,3
A,V	65±0,021		2,0	+0,8 - 0,4
V	Ø30	3,2		+0,5 -0,3

2.4. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish

Mexanik ishlov berish texnologik jarayonlarini loyixalash uchun xar bir detalning yillik ishlab chiqarish dasturi asos bo'ladi. Xuddi shuningdek detalning ishchi chizmasi uni tayyorlash bo'yicha texnik shartlari dastlabki ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Mashina detallari yuzalariga mexanik ishlov berish rejasi ularni tayyorlashni eng ma'qul variantini tuzishdan iborat. Yuzalarga ishlov berish ketma-ketligini tanlashdan ilgari detalni tayyorlash aniqligi va texnik shartlariga xom ashyoni olishni mexanik ishlov berish usullariga shuningdek shu detalni tayyorlashni tipoviy yoki ishlabchiqarishda qo'llanilayotgan texnologik jarayonga tayanish kerak. Asosiy e'tiborni xom ashyo yuzalariga ishlov berish uchun texnologik bazalarni qabul qilishga qaratiladi. Ishlov berilayotgan yuzalar texnologik bazalar va qo'llaniladigan dastgohlar haqida qisqa ma'lumot beriladi.

2.4-jadval

Operatsiya №	O'tish №	Operatsiya nomi va o'tishlar mazmuni	Bazalash yuzasi	Mahkamlash yuzasi	Dastgoh nomi va turi
1	2	3	4	5	6
005	1	Frezalash A o'rnatish A yuza l=67js12 o'lchamda frezalansin	V	L ₁ , L ₂	3T13 Vertikal frezalash

010	2	B o'rnatish B yuza l=15js12 o'lchamda frezalansin	S teshikli V	A	2M55 radial parmalash
	3	V o'rnatish V yuza l=65js12 o'lchamda frezalansin			
	1	Radial parmalash 2 ta teshik Ø8.5N10 o'lchamda parmalansin			
	2	2 ta teshik Ø9.5N8 o'lchamda zenkerlansin			
	3	2 ta teshik Ø10N7 o'lchamda razvyortkalansin			
015		Vertikal parmalash S teshik Ø28.5N11	1 ta teshik va A	V	2N125 Vertikal parmalash
	1	o'lchamda parmalansin			
	2	S teshik Ø29.5N8 o'lchamda zenkerlansin			
	3	S teshik Ø30N7 o'lchamda razvyortkalansin			

2.5. Kesish maromlarnii hisoblash

005-Frezalash operatsiyasi bo'yicha kesish maromlarini hisoblash.

O'tish mazmuni: A yuza l=67js12 o'lchamda frezalansin

Dastgoh: 3T13 - Vertikal frezalash dastgohi.

Ishlov beriladigan qo'yim miqdori - $t=h=2$ mm. Frezalanadigan yuza eni - $V=70$ mm, uzunligi - $l=100$ mm.

Kesuvchi asbob: T15K6 - qattiq qotishmali toretsli freza. Sirt yuzalarni frezalashda freza diametri - $D=1,5 \cdot B=1,5 \cdot 70=105$ mm. Standart bo'yicha freza diametrini: $D = 110$ hamda tishlar sonini aniqlaymiz: $z=8$.

Kesish maromlarini aniqlaymiz.

1). Kesish chuqurligini aniqlaymiz. Qo'yimni bir ishchi yurish bilan olamiz - $t=h=2$ mm.

2). Surish qiymatini qabul qilamiz. [4] (33-jadval, 283-bet) ga asosan $s_z = 0,14 \frac{mm}{daq}$.

3). Tanlangan freza uchun turg'unlik davrini topamiz: [4] (42-jadval, 292-bet) $T=180$ daq.

4). Kesish tezligini topamiz:

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x s_z^y B^u z^p}$$

bu yerda,

$C_v = 332$ - kesish tezligini topish koeffitsienti, [4] (39-jadval, 286-bet); $x = 0,1$ - kesish chuqurligi ko'rsatkich darajasi; $y = 0,4$ - uzatish ko'rsatkichi darajasi; $m = 0,2$ - kesuvchi asbobning turg'unlik davri ko'rsatkich darajasi; $u=0,2$; $p=0$; $m=0,2$.

K_v - kesish tezligining to'g'rilash koeffitsienti, u quyidagi formula yordamida topiladi:

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{pv} \cdot K_{iv},$$

bu yerda,

$K_{mv} = 0,45$ - ishlov berilayotgan materialning fizik-kimyoviy xususiyatlarining ta'siriga bog'liq koeffitsient, [4] (1-4 jad., 261-263 b.);

$K_{pv} = 0,8$ - zagotovka yuzasiga bog'liq koeffitsient, [4] (5-jadval, 263 b.);

$K_{iv} = 1$ - kesuvchi asbobni kesish tezligiga ta'sirini hisobga olish koeffitsienti, [4] (6-jadval, 263 b.).

$$K_v = 0,45 \cdot 0,8 \cdot 1 = 0,36$$

U holda kesish tezligi quyidagiga teng:

$$v = \frac{332 \cdot 110^{0,2}}{180^{0,2} \cdot 2^{0,1} \cdot 0,14^{0,4} \cdot 70^{0,2} \cdot 8^{0,2}} \cdot 0,36 = 94,86 \frac{m}{daq}.$$

5). SHpindelning aylanishlar soni quyidagicha topiladi:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 94,86}{3,14 \cdot 110} = 274,5 \text{ daq}^{-1},$$

Biz tanlagan dastgohga ko'ra aylanishlar soni $n_h=300$ ayl/daq.

6). Haqiqiy kesish tezligi esa quyidagicha:

$$v_h = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 110 \cdot 300}{1000} = 103,67 \text{ m/daq.}$$

7). Surilish harakat tezligi

$$s_m = s n = s_z z n_h = 0,14 \cdot 8 \cdot 300 = 336 \frac{\text{mm}}{\text{daq.}}$$

Dastgoh bo'yicha daqiqaviy surilish $s_m=330$ mm/daq.

Freza tishiga haqiqiy surilish qiymati

$$s_z = \frac{s_m}{z n_h} = \frac{330}{8300} = 0,14 \frac{\text{mm}}{\text{daq.}}$$

8). Kesish kuchini hisoblaymiz

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s_z^y B^{n_z}}{D^q n^w} K_{mr}$$

bu yerda,

[4] (41-jadval, 291-bet) ga asosan koeffitsient va daraja ko'rsatkichlari qiymatlarini topamiz: $S_r=825$; $x=1$; $u=0,75$; $u=1,1$; $q=1,3$; $w=0,2$; $n=300$ ishlov berilayotgan material sifatini to'g'rilash koeffitsienti $K_{mr}=0,785$ ([4], 9-jadval, 264-bet). U holda kesish kuchi

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 2^1 \cdot 0,14^{0,75} \cdot 70^{1,1} \cdot 8}{110^{1,3} \cdot 300^{0,2}} \cdot 0,785 = 1800,58 \text{ H} = 1,8 \text{ kN.}$$

9). Kesish quvvatini hisoblaymiz

$$N_{ef} = \frac{P_z \cdot V}{1020 \cdot 60} = \frac{1801 \cdot 104}{1020 \cdot 60} = 3,05 \text{ kVt.}$$

10). Dastgoh maksimal quvvati bo'yicha tekshiramiz

$N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,85 = 8,5 \text{ kVt.}$ $N_{kes} < N_e$, $3,05 < 8,5$, ya'ni ishlov berish mumkin.

11). Asosiy texnologik vaqtni aniqlaymiz:

$$T_0 = \frac{L}{v_h} = \frac{l+y+\Delta}{v_h},$$

bu yerda, L - uzatish harakatlanish traektoriyasi bo'yicha keskichning umumiy yo'li;

i - ishchi xod soni.

Ishchi xod uzunligi quyidagicha topiladi:

l - ishlov beriladigan yuza uzunligi, $l = 100$ mm; $y = 17,5$ mm; $\Delta = 3$ mm.

$$T_0 = \frac{100 + 17,5 + 3}{95} = 1,3 \text{ daq.}$$

№ oper	№ o'tish	d, mm	t, mm	L, mm	S, mm/ay l	V, m/daq	n, 1/daq	N, kVt	T ₀ , daq
005	1	110	2	100	0,14	94,86	300	3,05	1,3

010-Radial parmalash operatsiyasi 1-o'tish uchun analitik usulda kesish maromlarini hisoblaymiz. 2 ta teshik Ø8.5N10 o'lchamda parmalansin. Dastgoh: 2M55; Kesuvchi asbob materiali: T15K6.

1. Kesish chuqurligi. Kesish chuqurligi parmalash operatsiyasida $t = 0,5D$ formula yordamida topiladi: $t = 0,5 \cdot 8,5 = 4,25 \text{ mm}$.

2. Surish qiymati. Surish qiymati jadval asosida ishlov berilayotgan material qattiqligi, kesuvchi asbob diametri va ishlov berish yuzasiga qarab olinadi [3]:

$$s = s_j \cdot K_{is} \cdot K_{os} \cdot K_{bs} \cdot K_{as},$$

bu yerda,

s - jadval asosida olingan surish qiymati, $s = 0,12 \text{ mm/ayl}$;

K_{is} - teshik chuqurligiga bog'liq koeffitsient, $K_{is} = 1$;

K_{os} - yuqori sifatli yuza olishga bog'liq koeffitsient, $K_{os} = 1$;

K_{bs} - tizim bikirligini hisobga oluvchi koeffitsient, $K_{bs} = 1$;

K_{as} - kesuvchi asbobga bog'liq koeffitsient, $K_{as} = 0,6$;

$$s = 0,12 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0,6 = 0,072 \text{ mm/ayl.}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha haqiqiy qiymatini belgilaymiz, $s = 0,1 \text{ mm/ayl}$.

3. Kesish tezligi parmalash operatsiyasi uchun quyidagi formula orqali topiladi:

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m s^y} K_v,$$

bu yerda,

C_v, q, m, x, y - koeffitsient va daraja ko'rsatkichlari, bizning holat uchun ular quyidagiga teng: $S_v=7$; $q=0,4$; $m=0,2$; $y=0,7$;

T - asbobning turg'unlik davri, $T=8 \text{ daq.}$;

K_v - kesish tezligini to'g'rilash koeffitsienti,

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{pv} \cdot K_{iv},$$

bu yerda,

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialga bog'liq koeffitsient, $K_{mv} = 0,48$ [3, 262 b.];

K_{pv} - zagotovka yuzasiga bog'liq koeffitsient, $K_{pv} = 0,8$ [3, 263 b.];

K_{iv} - kesuvchi asbobga bog'liq koeffitsient, $K_{iv} = 1$ [3, 263 b.]. U holda,

$$K_v = 0,48 \cdot 0,8 \cdot 1 = 0,384.$$

Kesish tezligi quyidagicha:

$$v = \frac{7 \cdot 8,5^{0,4}}{8^{0,2} \cdot 0,1^{0,7}} 0,384 = 45,57 \frac{m}{daq}.$$

3. SHpindelning aylanishlar soni:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 45,57}{3,14 \cdot 8,5} = 1706,52 \text{ daq}^{-1},$$

Dastgoh pasporti bo'yicha shpindelning aylanishlar sonini $n = 1600$ ayl/daq ga to'g'rilasak, u holda haqiqiy kesish tezligi quyidagiga teng:

$$v_f = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 8,5 \cdot 1600}{1000} = 42,73 \text{ m/daq}.$$

4. Kesish kuchi va aylantirish momenti quyidagi formulalar yordamida topiladi:

$$M_{ayl} = 10 C_m D^{mq} S^{my} K_p,$$

$$P_0 = 10 C_p D^{pq} S^{py} K_p, \quad (3.10)$$

bu yerda,

C_p , S_m - doimiy koeffitsientlar, $S_r = 68$, $S_m = 0,0345$ [3, 281 b.];

q_m , q_p , y_m , y_p - daraja ko'rsatkichlari, $q_m = 2$, $q_p = 1$, $y_m = 0,8$, $y_p = 0,7$ [3, 281 b.];

K_r - ishlov berilayotgan materialga bog'liq to'g'rilash koeffitsienti, $K_r = K_{mv} = 0,55$ [3, 264 b.]

$$M_{ayl} = 10 \cdot 0,0345 \cdot 8,5^2 \cdot 0,1^{0,8} \cdot 0,55 = 2,17 \text{ N} \cdot \text{m},$$

$$P_0 = 10 \cdot 68 \cdot 8,5^1 \cdot 0,1^{0,7} \cdot 0,55 = 634,29 \text{ N}.$$

5. Kesish quvvati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N = \frac{M_{kr} n}{9750} = \frac{2,17 \cdot 1600}{9750} = 0,36 \text{ kVt}.$$

6. Asosiy texnologik vaqt:

$$T_a = 2 \cdot L / ns$$

bu yerda, $s=0,1$ mm/ayl - surish qiymati;

$s_y=1,2$ mm/ayl - asbobning zudlik bilan surish qiymati;

L - ishlov berish yo'li uzunligi:

$$L=l+l_1+l_2,$$

bu yerda, l - ishlov beriladigan yuza uzunligi, $l = 15$ mm; l_1 - kesish yo'li qiymati, mm, $l_1=3$ mm; l_2 - keskichning ortiqcha yurgan yo'li, $l_2 = 0$ mm. $L = 15 + 3 + 0 = 18$ mm.

$$T_a = 2 \cdot \frac{19}{1600 \cdot 0,1} = 0,24 \text{ daq.}$$

№ oper	№ o'tish	d , mm	t , mm	L , mm	S , mm/ayl	V , m/daq	n , 1/daq	N , kVt	T_0 , daq
010	1	8,5	4,25	15	0,1	42,73	1600	0,36	0,24

Jadval usulida 005-frezalash operatsiyasi 2-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. B yuza $l=15$ mm uzunlikda frezalansin.

Boshlang'ich ma'lumotlar: frezalash dastgohi-3T13; kesuvchi asbob-T15K6 GOST 18880-73; kesish chuqurligi-1 mm.

1. Supportning harakat yo'li uzunligini hisoblaymiz:

$$L_{p.x} = l_{kes} + y + L_{qo'sh} = 100 + 2 + 3 = 105 \text{ mm},$$

bu yerda, $l_{kes}=100$ mm; $y=2$ mm [5, 300 b]; $L_{qo'sh}=3$ mm.

$$F = b_{o'rt} L_{kes} = 2 \cdot 100 = 200 \text{ mm}^2$$

2. Surish qiymati: $s_z=0,25$ mm/ayl [5, 85 b].

3. Kesuvchi asbobning turg'unlik davri - $T = 60$ daq. [5, 87 b.].

$$4. \text{Kesish tezligi} - v = v_j K_1 K_2 K_3 = 35 \cdot 1,35 \cdot 1,55 \cdot 1,05 = 76,9 \text{ m/daq},$$

bu yerda, $v_j = 35$ m/daq. [5, 96 b.]; $K_1=1,35$ [5, 96 b.]; $K_2=1,55$ [5, 100 b.]; $K_3=1,05$ [5, 100 b.].

5. Tavsiya etiladigan shpindelning aylanishlar soni:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 76,9}{3,14 \cdot 50} = 490 \text{ daq}^{-1},$$

Dastgoh pasportiga ko'ra - $n=500$ 1/daq. U holda haqiqiy kesish tezligi:

$$v_h = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 50 \cdot 500}{1000} = 78,5 \text{ m/daq}.$$

6. Daqiqaviy o'tish:

$$s_m = s_z z_u n = 0,25 \cdot 25 \cdot 500 = 3125 \frac{\text{mm}}{\text{daq}}.$$

Dastgoh pasporti bo'yicha - $s_m=2000$ mm/daq.

7. Asosiy vaqt:

$$T_a = \frac{L_{p.x}}{s_m} = \frac{105}{2000} = 0,053 \text{ daq}.$$

8. Kesish quvvati:

$$N_{kes} = E_z \frac{v z_u b_{max}}{1000} K_1 K_2 = 140 \cdot 0,7 \cdot 1,1 = 7,8 \text{ H},$$

bu yerda, $Y_e = 140$ N. [5, 102 b.]; $K_1 = 0,7$ [5, 103 b.]; $K_2 = 1,1$ [5, 103 b.].

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,8 = 8$ kVt. $N_{kes} < 1,2 N_e$, $7,8 < 9,6$.

Ishlov berish mumkin.

Jadval usulida 005-frezalash operatsiyasi 3-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. V yuza $L=65$ mm uzunlikda frezalansin.

Boshlang'ich ma'lumotlar: frezalash dastgohi-3T13; kesuvchi asbob-Torets freza T15K6 GOST 10903-77; kesish chuqurligi-2 mm.

1. Supportning harakat yo'li uzunligini hisoblaymiz:

$$L_{p.x} = l_{kes} + y + L_{qo'sh} = 70 + 2 + 3 = 75 \text{ mm},$$

bu yerda, $l_{kes}=70$ mm; $y=2$ mm [5, 300 b.]; $L_{qo'sh}=3$ mm.

$$F = b_{o'rt} L_{kes} = 24 \cdot 70 = 1680 \text{ mm}^2$$

2. Surish qiymati: $s_z=0,25$ mm/ayl [5, 85 b.].

3. Kesuvchi asbobning turg'unlik davri - $T = 60$ daq. [5, 87 b.].

4. Kesish tezligi - $v = v_j K_1 K_2 K_3 = 35 \cdot 1,35 \cdot 1,55 \cdot 1,05 = 76,9 \text{ m/daq}$,

bu yerda, $v_j = 35 \text{ m/daq}$. [5, 96 b.]; $K_1=1,35$ [5, 96 b.]; $K_2=1,55$ [5, 100 b.]; $K_3=1,05$ [5, 100 b.].

5. Tavsiya etiladigan shpindelning aylanishlar soni:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 76,9}{3,14 \cdot 60} = 408 \text{ daq}^{-1},$$

Dastgoh pasportiga ko'ra - $n=400 \text{ 1/daq}$. U holda haqiqiy kesish tezligi:

$$v_h = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 60 \cdot 400}{1000} = 75,4 \text{ m/daq}.$$

6. Daqiqaviy o'tish:

$$s_m = s_z z_u n = 0,25 \cdot 12 \cdot 400 = 1200 \frac{\text{mm}}{\text{daq}}.$$

Dastgoh pasporti bo'yicha - $s_m=1200 \text{ mm/daq}$.

7. Asosiy vaqt:

$$T_a = \frac{L_{p.x}}{s_m} = \frac{75}{1200} = 0,063 \text{ daq}.$$

8. Kesish quvvati:

$$N_{kes} = E_z \frac{v_{z_u} b_{max}}{1000} K_1 K_2 = 140 \cdot 0,7 \cdot 1,1 = 7,8 \text{ H, yerda, } Y_e = 140 \text{ N. [5, 102 b.];}$$

$$K_1 = 0,7 \text{ [5, 103 b.]; } K_2 = 1,1 \text{ [5, 103 b.].}$$

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,8 = 8 \text{ kVt}$. $N_{kes} < 1,2 N_e$, $7,8 < 9,6$.

Ishlov berish mumkin.

Jadval usulida 10-radial parmalash operatsiyasi 2-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. 2 ta teshik Ø9.5N8 o'lchamda zenkerlansin

Boshlang'ich ma'lumotlar: 2M55 radial parmalash dastgoxi; kesuvchi asbob-
eenker R6M5 GOST 18880-73; kesish chuqurligi-0,5 mm.

1. Supportning harakat yo'li uzunligi:

$$L_{p.x} = l_{kes} + y + L_{qo'sh} = 15 + 2 + 3 = 20 \text{ mm},$$

bu yerda, $l_{kes}=15 \text{ mm}$; $y=2 \text{ mm}$ [5, 300 b]; $L_{qo'sh}=3 \text{ mm}$.

2. Surish qiymati:

$s_0=0,3 \text{ mm/ayl}$ [5, 111 b]. Tanganlgan dastgoh pasporti bo'yicha $s=0,25 \text{ mm/ayl}$.

3. Normativ asosida kesuvchi asbob turg'unlik davri - $T = 60 \text{ daq}$. [5, 114 b.].

4. Kesish tezligi hamda shpindelning aylanish soni:

$$v = v_j K_1 K_2 K_3 = 35 \cdot 1,35 \cdot 1,55 \cdot 1,05 = 76,9 \text{ m/daq},$$

bu yerda, $v_j = 35 \text{ m/daq}$ [5, 115 b.]; $K_1=1,35$ [5, 116 b.]; $K_2=1,55$ [5, 116 b.]; $K_3=1,05$ [5, 117 b.].

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 76,9}{3,14 \cdot 9,5} = 2370 \text{ daq}^{-1},$$

Tanlagan dastgoh pasportiga bo'yicha - $n=2400 \text{ 1/daq}$. Haqiqiy kesish tezligi:

$$v_h = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 9,5 \cdot 2400}{1000} = 71,6 \text{ m/daq}.$$

5. Asosiy vaqt:

$$T_a = 2 \cdot \frac{L_{p.x}}{n s_0} = 2 \cdot \frac{20}{2400 \cdot 0,25} = 0,07 \text{ daq}.$$

6. Kesish quvvatini hisoblaymiz:

$$N_{kes} = N_{jad} K_N \frac{n}{1000} = 1,4 \cdot 0,7 \frac{2400}{1000} = 2,35 \text{ kVt}.$$

bu yerda, $N_{jad} = 1,4$ [5, 127 b.]; $K_N = 0,7$ [5, 128 b.].

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,8 = 8 \text{ kVt}$.

$N_{kes} < 1,2 N_e$, $2,35 < 9,6$, ya'ni ishlov berish mumkin.

№ oper	№ o'tish	d, mm	t, mm	L, mm	S, mm/ayl	V, m/daq	n, 1/daq	N, kVt	T ₀ , daq
10	2	9,5	0,5	65	0,25	71,6	2400	2,35	0,05

Jadval usulida 10-radial parmash operatsiyasi 3-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. 2 ta teshik Ø10N7 o'lchamda razvyortkalansin

Boshlang'ich ma'lumotlar: 2M55 radial parmash dastgoxi; kesuvchi asbob-razvyortka R6M5 GOST 18880-73; kesish chuqurligi-0,25 mm.

Kesish maromlari 015-operatsiya 2-o'tish uchun hisoblangan maromlar bilan bir xil. U holda asosiy vaqtni hisoblaymiz.

1. Supportning harakat yo'li uzunligini hisoblaymiz:

$$L_{p.x} = l_{kes} + y + L_{qo'sh} = 15 + 2 + 3 = 20 \text{ mm},$$

bu yerda, $l_{kes}=15 \text{ mm}$; $y=2 \text{ mm}$ [5, 300 b]; $L_{qo'sh}=3 \text{ mm}$.

2. Asosiy vaqt:

$$T_a = \frac{L_{p.x}}{n s_0} = \frac{20}{2400 \cdot 0,25} = 0,07 \text{ daq.}$$

3. Kesish quvvatini topamiz:

$$N_{kes} = N_{jad} K_N \frac{n}{1000} = 0,6 \cdot 0,75 \frac{2400}{1000} = 1,08 \text{ kVt.}$$

bu yerda, $N_{jad} = 0,6$ [5, 127 b.]; $K_N = 0,75$ [5, 128 b.].

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,8 = 8 \text{ kVt.}$

$N_{kes} < 1,2 N_e$, $1,08 < 9,6$, ya'ni ishlov berish mumkin.

Jadval usulida 015-parmalash operatsiyasi 1-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. S yuza Ø28,5 mm diametr L=65 mm uzunlikda parmalansin.

Boshlang'ich ma'lumotlar: Vertikal parmalash dastgohi-2N125; kesuvchi asbob-Spiral parma, R6M5 GOST 18877-73; kesish chuqurligi-2 mm.

1. Supportning harakat yo'li uzunligi:

$$L_{p.x} = l_{kes} + y + L_{qo'sh} = 65 + 2 + 6 = 73 \text{ mm,}$$

bu yerda, $l_{kes}=65 \text{ mm}$; $y=2 \text{ mm}$ [5, 300 b]; $L_{qo'sh}=6 \text{ mm}$.

2. Surish qiymati:

$s_0=0,2 \text{ mm/ayl}$ [5, 111 b]. Tanganlgan dastgoh pasporti bo'yicha $s=0,2 \text{ mm/ayl}$.

3. Normativ asosida kesuvchi asbob turg'unlik davri - $T = 45 \text{ daq.}$ [5, 114 b.].

4. Kesish tezligi hamda shpindelning aylanish soni:

$$v = v_j K_1 K_2 K_3 = 16 \cdot 1,3 \cdot 1,2 \cdot 1 = 24,96 \text{ m/daq,}$$

bu yerda, $v_j = 16 \text{ m/daq.}$ [5, 115 b.]; $K_1=1,3$ [5, 116 b.]; $K_2=1,2$ [5, 116 b.]; $K_3=1$ [5, 117 b.].

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 24,96}{3,14 \cdot 28,5} = 279 \text{ daq}^{-1},$$

Tanlagan dastgoh pasportiga bo'yicha - $n=300 \text{ 1/daq}$. Haqiqiy kesish tezligi:

$$v_h = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 28,5 \cdot 300}{1000} = 26,9 \text{ m/daq.}$$

5. Asosiy vaqt:

$$T_a = \frac{L_{p.x}}{n s_0} = \frac{23}{300 \cdot 0,2} = 0,383 \text{ daq.}$$

6. Kesish quvvatini hisoblaymiz:

$$N_{kes} = N_{jad} K_N \frac{n}{1000} = 0,6 \cdot 0,75 \frac{300}{1000} = 0,14 \text{ kVt.}$$

bu yerda, $N_{jad} = 0,6$ [5, 127 b.]; $K_N = 0,75$ [5, 128 b.].

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 2,2 \cdot 0,8 = 1,76 \text{ kVt.}$

$N_{kes} < 1,2 N_e$, $0,14 < 2,112$, ya'ni ishlov berish mumkin.

№ oper	№ o'tish	d, mm	t, mm	L, mm	S, mm/ayl	V, m/daq	n, 1/daq	N, kVt	T ₀ , daq
015	1	28,5	1	15	0,2	26,9	300	0,14	0,383

Jadval usulida 015-parmalash operatsiyasi 2-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. S yuza Ø29,5 mm diametr L=65 mm uzunlikda zenkerlansin.

Boshlang'ich ma'lumotlar: Vertikal parmalash dastgohi-2N125; kesuvchi asbob-zenker, R6M5 GOST 18877-73; kesish chuqurligi-0,5 mm.

1. Supportning harakat yo'li uzunligi:

$$L_{p.x} = l_{kes} + y + L_{qo'sh} = 65 + 2 + 4 = 71 \text{ mm,}$$

bu yerda, $l_{kes}=65 \text{ mm}$; $y=2 \text{ mm}$ [5, 300 b]; $L_{qo'sh}=4 \text{ mm}$.

2. Surish qiymati:

$s_0=0,25 \text{ mm/ayl}$ [5, 112 b]. Tanganlgan dastgoh pasporti bo'yicha $s=0,25 \text{ mm/ayl}$.

3. Normativ asosida kesuvchi asbob turg'unlik davri - $T = 45 \text{ daq.}$ [5, 114 b.].

4. Kesish tezligi hamda shpindelning aylanish soni:

$$v = v_j K_1 K_2 K_3 = 18 \cdot 1,3 \cdot 1,3 \cdot 1,1 = 33,46 \text{ m/daq,}$$

bu yerda, $v_j = 18 \text{ m/daq.}$ [5, 116 b.]; $K_1=1,3$ [5, 116 b.]; $K_2=1,3$ [5, 117 b.]; $K_3=1,1$ [5, 118 b.].

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 33,46}{3,14 \cdot 29,5} = 361 \text{ daq}^{-1},$$

Tanlagan dastgoh pasportiga bo'yicha - $n=400 \text{ 1/daq}$. Haqiqiy kesish tezligi:

$$v_h = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 29,5 \cdot 400}{1000} = 37,1 \text{ m/daq}.$$

5. Asosiy vaqt:

$$T_a = \frac{L_{p.x}}{n s_0} = \frac{71}{400 \cdot 0,25} = 0,71 \text{ daq}.$$

6. Kesish quvvatini hisoblaymiz:

$$N_{kes} = N_{jad} K_N \frac{n}{1000} = 0,6 \cdot 0,75 \frac{400}{1000} = 0,18 \text{ kVt}.$$

bu yerda, $N_{jad} = 0,6$ [5, 127 b.]; $K_N = 0,75$ [5, 128 b.].

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 2,2 \cdot 0,8 = 1,76 \text{ kVt}$.

$N_{kes} < 1,2 N_e$, $0,18 < 2,112$, ya'ni ishlov berish mumkin.

Jadval usulida 015-parmalash operatsiyasi 3-o'tish uchun kesish

maromlarini hisoblaymiz. S yuza Ø30 mm diametr L=65 mm uzunlikda zenkerlansin.

Boshlang'ich ma'lumotlar: Vertikal parmalash dastgohi-2N125; kesuvchi asbob-razvyortka, R6M5; kesish chuqurligi-0,25 mm.

1. Supportning harakat yo'li uzunligi:

$$L_{p.x} = l_{kes} + y + L_{qo'sh} = 65 + 2 + 4 = 71 \text{ mm},$$

bu yerda, $l_{kes}=65 \text{ mm}$; $y=2 \text{ mm}$ [5, 300 b]; $L_{qo'sh}=4 \text{ mm}$.

2. Surish qiymati:

$s_0=0,28 \text{ mm/ayl}$ [5, 112 b]. Tanganlgan dastgoh pasporti bo'yicha $s=0,30 \text{ mm/ayl}$.

3. Normativ asosida kesuvchi asbob turg'unlik davri - $T = 60 \text{ daq}$. [5, 114 b.].

